

**FRANSIYA SAN'ATI. BARBIZON MAKTABI. TEODOR RUSSO, JAN  
FRANSUA MILLE**

**Abdusalamova Shahida Kamiljanovna**

*Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Sanoat dizayni  
kafedrasida katta o'qituvchisi*

**Erkinova Nilufar Abror qizi**

*Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Sanoat dizayni  
kafedrasida talabasi*

Barbizon maktabi Fransuz peyzaj rassomlarining ijodiy uyushmasi, ular tabiatni real bezaksiz tasvirlashga intilganlar. Bu uyushmani nomi **Fontenblo** o'rmoni yaqinida joylashgan Barbizon qishlog'i tomonidan berilgan.



*Barbizon maktabi. Jyul Dupre. "Fontenblodagi eman daraxtlari", 1840 yil*

Barbizon maktabining peyzaj rassomlarining ishi nafaqat Fransiya uchun balki, butun Yevropa 1830-1860-yillardagi muhim badiiy hodisaga aylangan.

XIX asrning boshlari Fransuz san'atida Klassizm va Romantizm o'rtasidagi kurash bilan kechadi. Akademiklar uni asosan mifologik belgilar harakat qiladigan fon sifatida tan olishadi. Romantistlar esa zeb-ziynatlangan va tashqi ko'rinishidan go'zal manzara yaratadilar. Barbizonchilar esa oddiy mehnat bilan shug'ullanadigan odamlarning kundalik hayoti bilan o'z vatanining real manzaralarini qo'llab quvvatlashgan. Barbizon maktabining o'ziga xos uslubi bu ochiq havoda eskiz yaratish so'ngra uni ustaxonada davom ettirish bo'lgan. Barbizon maktabi 1828-1829-yillarga borib taqaladi. Uning asoschisi Teodor Russo birinchi marta eskizlar yaratish uchun Fontenblo o'rmoniga kelgan. Ko'plab tarixiy ma'lumotlarga ko'ra bu yerda qirollik uyi joylashgan Fontenblo Fransiyaning eng mashxur o'rmonlaridan biri bo'lib, Monarxlar aynan shu joyga

ov qilgani kelganlar. Rassomlarni bu joyning shon-shuxrati emas balki, uning soddaligi, tabiatining go'zalligi, mahalliy hayotning tinchligi va osoyishtaligi bilan jalb etgan.

Rassomlar Barbizon qishlog'ida qolib **Fontenbloga** tez-tez tashrif buyurishgan. Bu yerning eng mashxur joylaridan biri "**Oq ot**" deb nomlangan mehmonxona edi. Barbizon qishlog'i uncha katta bo'lmagani uchun u yerda 40 tagina uy va 1 dona mehmonxona bo'lgan. Keyinchalik esa u yerga rassomlar ustaxonalar qurishgan, hozirgi payitda ulardan biri **Russoning** muzeyidir. 1830-yilda Barbizonida paydo bo'lgan rassomlar jamoasi 20 kishidan osha boshlaydi, o'sha davrda mahalliy hokimiyat Fontenblo o'rmoni botqoqliklarini quritib, daraxtlarni kesishni boshlash rejalari Barbizoniyalik rassomlar tufayli bekor bo'ladi.

Barbizon maktabining rassomlari boy me'ros qoldirgan minglab asarlari hozirgi vaqtda turli muzeylarda va shaxsiy kolleksiyalarda saqlanmoqda. Bu yo'nalishning yetakchilaridan Teodor Russo va Djul Dyupre hisoblanadi. Ularning taniqli izdoshlari qatoriga Narsis Diaz, Konstantin Troyon, Jan-Fransua Mille, Adolf Appian, Henri Jozef Arpigni va Charlz-Fransua Dobinilar kirgan biroq, ularning ijod namunalari akademik rassomlar tomonidan uzoq vaqt davomida tan olinmadi va bu Parij salonlarida Barbizonchilarning asarlari paydo bo'lishiga to'sqinlik qildi.

1848-yilgi navbatdagi Fransuz inqilobi hamma narsani o'zgartirdi, jamiyatda demokratik tuyg'ular kuchaydi hamda Barbizon rassomlari uchun g'alaba lahzalari keldi. 1850-yillar bu harakatning gullagan davri edi, lekin bu davr ham uzoqqa cho'zilmadi. Asta sekin san'at olamida ham bu yo'nalish yo'qola boshladi. Bu asosan 1867-yilda o'zining sevimli Barbizonida hayotini yakunlagan Teodor Russoning o'limi bilan bog'liq edi.

P'yer Et'yen Teodor Russo Fransuz peyzaj rassomi, Barbizon maktabining asoschisi, u ijodida plenerdan foydalangan birinchi rassomlarni birlashtirgan. Barbizonchilarni asosiy maqsadi tabiatni faqatgina fon emas rang tasvirning asosiy mavzusi bo'lishini hohlashgan. Rassom Teodor Russo 1812-yilda 15-aprelda Parijda tug'ilgan. Rassom sifatida asosan mustaqil ravishda shakllangan. Teodor Russo o'zining birinchi rassomlik darsini unchalik mashxur bo'lmagan amakivachchasidan olgan. Keyinchalik rassom 15 yoshidan taniqli rang tasvirchi Jan Sharl Jozefda tahsil olishni boshlagan. Asosiy jivopisga bo'lgan sevgisini Russo ustozini bilan birga shahar tashqarisiga bo'lgan sayohatlaridan oladi va bu o'zining asarlarida aks ettiradi.



*Teodor Russo "Landdagi botqoq", 1852 yil*

Russo bir vaqtning o'zida tasviriy san'at maktabida ham tahsil oladi. 19 yoshida Fransuz jamoatchiligiga peyzajist rassom sifatida taniladi. 1831-yilda 19 yoshli Russo Parij salonida ishtirok etish uchun ariza beradi uning ("Gravniya atrofidan ko'rinish") kartinasi go'yo jonli tabiatga ochilgan darcha bo'lgan (yillar o'tishi bilan kartina juda qorayib qolgan va hozirgi kunda uning avvalgi ko'rinishini tasavvur qilish qiyin" ikki yildan keyin) Russo Shvetsariyaning Yura tog'larida chizilgan peyzajini salonga qo'yishga uringan. U asarini "sigirlarning Yura tog'laridagi yaylovlardan qaytishi" deb nomlagan. Ammo bu asari syujetini oddiy hisoblangan va jyuri a'zolari bunday syujetni tanqid qilinishi ularga nisbatan haqorat deb hisoblashgan va 13 yil davomida uning ishlarini qabul qilishmagan.

Plener yo'nalishi bu - quyosh nuri va atrofdagi atmosfera ta'sirida yuzaga keladigan rang o'zgarishlarining barcha boyligini rasmda tasvirlashni anglatadigan atama. Plenar asar studiyada emas balki tabiatda, tabiatni tabiiy yorug'likka tushunish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan rasmlar yaratish ni o'z ichiga oladi.

Russo Barbizonda asosiy vaqtini Narsis Diaz bilan birgalikda o'tkazadi. Barbizonning tabiati unga shunchalik katta taasurot qoldirganki Russo har yili u yerga kela boshlaydi va 1848-yilda u rafiqasi bilan butunlay ko'chib keladi. Russoning mashxur asarlari aynan shu yerda yaratilgan.

Vaqt o'tishi bilan Russo atrofida uning hamkasblari tabiatni sevuvchi Jan-Fransua Mille, Charlz-Fransua Dobini va Djul Dyuprelar paydo bo'ladi va shu tariqa Barbizon maktabi paydo bo'la boshlaydi.

1853-yilgi Jahon ko'rgazmasida Teodor Russo asarlari ko'rgazmaning eng yaxshilaridan biri deb tan olingan bo'lsa-da, tomoshabinlar ularni sotib olishga shoshilmadilar. Hayotdagi qiyinchiliklar rassomning sog'lig'iga putur yetkazdi. 1867-yil avgust oyida insultni boshdan kechirganligi sababli rassom shol bo'lib qoldi. Rassom hech qachon og'ir kasallikdan tuzalmagan va 22-dekabr kuni vafot etadi.

Barbizon maktabining iqtidorli rassomlaridan biri Jan Fransua Mille 1814-yilda Normandiya qishlog'ida tug'ilgan. Uning oilasi aslzoda bo'lmagan otasi



mahalliy cherkovda organist bo'lib hizmat qilgan. Qolgan vaqt esa dexqon xo'jaligi bilan shug'ullangan Millening San'atiga bo'lgan qiziqishi erta namoyon bo'ladi. Ota-onasi uni talantini payqab uni talantini qo'llab quvvatlashadi. 19 yoshida Mille Cherbourgga ko'chib o'tadi. U yerda mashxur portretchi Dyumushelning ustaxonasiga ishga kiradi. Bir necha yil o'tgach ustози va janrini o'zgartirib Langlois rahbarligidagi jang rasmlarini o'rganishni boshlaydi. Ikki yil davomida 1837-yilgacha Mille Parijda, tasviriy san'at maktabida o'zining tarixiy rasmlari bilan mashg'ul bo'lgan. U mashxur rassom Delarosh rahbarligida o'qidi, ammo ustози bilan tortishuvdan so'ng u Fransiya poytaxtini tark etadi.

Mille ijodining boshlanishi muvoffaqiyatli bo'lmaydi. U olgan buyurtmalar buyurtmachilar tomonidan rad etiladi. Bir muncha vaqt u o'zini boqish uchun belgilar ham yaratgan. U hali ham portret rassomi bo'lishini orzu qilar edi. 1845-yilda Mille Parijga ko'chib o'tadi va o'z uslubini ishlash uchun tajriba boshlaydi.



*"Daraxtdan otilgan chaqaloq Edip" Jan-Fransua Mille, 1847 yil.*

Bu davrda u mifologik mavzular bilan kichik rasmlar yaratadi. Rassomning birinchi muvaffaqiyati aynan shular bilan bog'liq. Uning "Daraxtdan otilgan bola Edip" asari salonlarning birida tanqidchilarning olqishiga uchradi. 1848-yilda Mille haqiqiy muvaffaqiyatga erishdi, hokimiyat Respublikachilarga o'tgandan so'ng realist mavzular tasvirlangan rasmlar modaga kirdi. 1848-yilda eng dolzarb tendensiyaga mos keladigan mavzuga "Shamollatuvchi" asarini yaratdi. Mille hukumatda buyurtmalar ola boshladi va bu buyurtmalari uchun yaxshigina haq to'lashadi. Keyinchalik u Parijdagi vabo tufayli Parij yaqinidagi Barbizon

qishlog'iga ko'chib o'tadi. U paytlarda Barbizonda rassomlar jamoasi allaqachon mavjud edi. Barbizonliklar Milleni yaxshi qabul qilishdi, Mille u yerda o'zining haqiqiy do'sti Russoni topdi. Barbizon hayoti ham juda ideal emas edi.



*Jan-Fransua Mille. "Quloqlarni yig'uvchilar", 1857 yil*

Tanqidchilar uni mehnatkash odamlarni tasvirlashga berilib ketmasligini ko'p tanqid qilishar edi. Vaziyat XIX asrning 60-yillariga kelib biroz o'zgardi Mille kolleksionerlar orasida tanildi va Beliyalik galeristlar u bilan yiliga 25 ta rasm yaratishga shartnoma tuzdilar. Ammo rassom buni og'ir hisoblab bir necha yildan keyin bekor qildi. 1864-yilda "Podani qo'riqlayotgan cho'pon" kartinasi Millega yanada katta shon shuhrat olib keldi. 1867-yilda uning shaxsiy ko'rgazmasi bo'lib o'tdi.

Keyinchalik u Fransiyaning eng yuqori mukofoti faxriy Legion kavaleri orderi bilan taqdirlanadi va 1870-yilda u nufuzli Parij saloning hakamlar hayati a'zosi etib saylanadi. Mille 1873-yil yanvarda 60 yoshida vafot etdi.

#### **ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

1. I.V. Dmitrieva SAN'AT TARIXI (1-qism) Учебная поссоба // Toshkent - 2020. С. 1-204
2. Рахманов Ж.М. Дизайн и интеграционное развитие общественного транспортного средства // Academy. 2020. №12 (63). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/dizayn-i-integratsionnoe-razvitie-obschestvennogo-transportnogo-sredstva>.
3. Рахманов Ж.М. Концепция развития рекламного искусства // Наука, образование и культура. 2020. №6 (50). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/kontseptsiya-razvitiya-reklamnogo>.
4. Абдусалямова Ш. К. Национальные куклы в Узбекистане //Наука, образование и культура. – 2019. – №. 6 (40). – С. 83-85.

5. Kamiljanovna A. S. Corrugation and its Application in Furniture Design //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 123-128.

6. Абдусалямова Ш. К. История развития газовых и электрических плит в хх веке //Наука, образование и культура. – 2021. – №. 3 (58). – С. 66-68.

7. Абдусалямова Ш. К. Дизайн плиты и вытяжки для современного интерьера //Наука, образование и культура. – 2020. – №. 5 (49). – С. 67-69.

8. Абдусалямова Ш. К. и др. АРХИТЕКТУРА ПЕРИОДА ВЕЛИКОЙ ФРАНЦУЗСКОЙ РЕВОЛЮЦИИ. АРХИТЕКТУРА ПЕРИОДА НАПОЛЕОНА //"USA" INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE TOPICAL ISSUES OF SCIENCE. – 2023. – Т. 8. – №. 1. <https://www.intereuroconf.com/index.php/ispc/article/view/3636>

9. Абдусалямова Ш. К. История игрушки //Наука, образование и культура. – 2019. – №. 6 (40). – С. 80-82.

10. Камбарова Ойдин Собиржановна Ювелирные искусства Узбекистана // Наука, образование и культура. 2019. №6 (40). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/yuvelirnye-iskusstva-uzbekistana> (дата обращения: 14.01.2022).

11. Камбарова Ойдин Собиржановна ГЕНЕЗИС УКРАШЕНИЙ ХОРЕЗМА // Наука, образование и культура. 2021. №3 (58). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/genezis-ukrasheniy-horezma> (дата обращения: 14.01.2022).

12. Odilova SayyoraDjavdatovna ZARGARLIK LOYIHASIDA BIONIK SHAKILLARDAN FOYDALANISH // Zamonaviy fan Va ta'lim yangiliklari jurnali – 2024. –С. 104-106.